

NUTQI TO'LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALARNING BOG'LANGAN NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA LOGOPEDIK MASHG'ULOTLARNI QÒLLASH USULLARI

Nizamova Malika Ravshan Qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

Maxsus pedagogika va inkluziv ta'lim fakulteti

Logopediya yo'nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Nutqi tòliq rivojlanmagan bolalarning bog'langan nutqini rivojlantirishda logopedik mashg'ulotlarni qòllash jarayonidir. Nutqi tòliq rivojlanmagan bolalarning bog'langan nutqini rivojlantirishda logopedik, pedagogik-psixologik ish tizimi, shakllantirish yo'llari, usullari, vositalaridan iborat. Nutqi tòliq rivojlanmagan bolalarning bog'langan nutqi va motorikasini rivojlantirish uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: Nutqi to'liq rivojlanmaganlik, talaffuz, tovush tahlili

Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, mamlakatimiz yigit qizlarini XXI asr talabalariga to'liq javob beradigan, har tomonlama rivojlangan shaxslar etib tarbiylash bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Jumladan nutq kamchiligiga ega bolalar bilan olib boriladigan korreksion–pedagogik va tarbiyaviy ishlar olib borishga katta e'tibor berilmoqda. Bolalardagi nutq kamchiliklarini o'z vaqtida oldini olish nerv psixik kasalliklarni oldini olishdan boshlanadi. Nutqning faol ishtiroki tufayli inson tevarak-atrof, borliq haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi. Shu bilan birga nutq bolaning rivojlanishida, uning ta'lim tarbiya olishida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bolalarda eng ko'p uchraydigan nuqsonlardan biri nutqning to'liq rivojlanmasligidir. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda bilish faoliyatini rivojlantirish, nuqsonni korreksiyalashda yetakchi ro'l o'ynaydi. Xususan bola diqqatini rivojlantirish korreksion mashg'ulotlarning samaradorligini ta'minlaydi. Maktabda o'qish, bilimlarini egallash jarayoni – bolalarda o'quv faoliyatida yuzaga keladigan qiziqishlari beixtiyor diqqatning o'sishiga yordam beradi. Bu bolaga berilgan materialning yorqinligi, uning ko'rgazmaliligi va aniqligi, bola hissiy sohasiga bo'lgan ta'siriga bog'liqdir. Nutqning to'liq rivojlanmaganligini R.E. Levina uch daraja bilan belgilaydi: nutqiy aloqa vositalarining umuman yo'q bo'lishidan to fonetik-fonematik va leksik-grammatik jihatdan rivojlanmaganlik elementlariga ega bo'lgan mukammal nutq buzilishigacha. Nutq to'liq rivojlanmaganligining birinchi darajasi nutqning bo'lmasligi bilan xarakterlanadi. Bunday bolalar nutqsiz bolalardir. 4-6 yoshdagi bunday bolalarning lug'at boyligi kambag'al, noaniq bo'ladi. Nutqiy tovushga taqlid

qilish, tovushlar kompleksi bilan chegaralangan bo'ladi. **Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning darajalari** Nutqning to'liq rivojlanmaganligi turli darajalarda namoyon bo'ladi. Avvalgi yuz yillikning 60-yillarida nutqiy rivojlanmaganlikning uch darajasi ta'riflangan. 2000 yilda T.B.Filicheva nutqiy rivojlanishning IV darajasini ta'riflab bergan.

Nutqining toliq rivojlanmaganligining I darajasi bu nutqning bolmasligi bilan xarakterlanadi. Bunday bolalar nutqsiz bolalardir, 4-6 yoshdagi bunday bolalarning lugat boyligi kambagal, noaniq boladi. Nutqi tovushga taqlid qilish, tovushlar kompleksi bilan chegaralangan boladi. Narsa va hodisalarni defentsilanmagan xolda ifodalaniladi sozlarning kop manoga ega bolishi xarakterli xususiyat boladi: "taq-taq"-qoshiq, "umma"-choy. Bu bolalarning pasiv lugati aktiv lugatiga qaraganda ancha boyroq boladi, ularda nutqni tushinish qobiliyati ancha pasaygan boladi. Tovush talafuziga noaniqlik beqarorlik, noaniqlik amoragrafik tovushlarini bir-birlari bilan almashtirish. Nutqi toliq rivojlanmagan bolalarga analizi boyicha berilgan topshiriqlar tushinarsiz. Professor P.E. Levina (1951) raxbarligida defektalogiya ITI ning logopediya sektorida otkazilgan tadqiqot natijalari korsatib berishicha mazkur toyifadagi bolalar nutqini anglashi susaygan boladi. Ular tanish vaziyat sabab bolgan "Kitobni portfelga solib qoy" yol-yoriqlarni togri tushinadi, raqobatli vaziyatlarda "Kitobni qalam ustiga qoy" topshiriqlarda ularni bajarishda darxol xatoliklar paydo bolladi. Bu toyifadagi quruvchi toliq toliq rivojlanmagan nutqli bolalar in, uya, shup, tom, shox navdalar va xakozo sozlarni tushunmaydilar. Amalda sozlarning gramatik ozgarishlarini anglash kuzatiladi. Ular quydagi "Qoziqorin qani?" tipidagi savollarga javob berishda qiynaladilar. Bolalar xulosa tuza olmaydilar, demak ularda grammatik konsturuksiyalar ham mavjud bolmaydi. Bundan tashqari ular nutqida koproq bir ikki boginli sozlar uchraydi, ana shu boginlar sonini kopaytirishga uringanlarida boginlar soni 2-3 ta qisqaradi. Fonematik idrok qilish keskin darajada buzilgan boladi, ammo aytilishi oxshash bolsa-da, mazmun turlicha suratlarni tanlashda ham qiynchilik paydo boladi. (tosh, bosh, qish). **Nutqi toliq rivojlanmaganlikning II darajasidagi** bolalar dastlabki keng qollaniladigan oddiy nutqni bolishi bilan xarakterlidir. Bolalar nisbatan lug`at boyligiga ega, malum oddiy farazlardan foydalanadilar. Ular predmedlarni, xodisalarni nomini aloxida nomlay oladilar. Lekin ularda qopol nutq nuqsonlarini kuzatish mumkin. Lugat boyligi tengdoshlariga nisbatan ancha past, umumlashtiruvchi sozlarni (mebel, kiyim, meva va x/k) bilmaslik kuzatiladi. Xarakat kam belgisini bildiruvchi sozlardan foydalanishda qiynchiliklar kuzatiladi, predmet nomi, shakli, kattaligi ullchami, rangi va boshqa belgilarni belgilashni bilmaydilar, fel sonni ot songa moslashtira olmaydilar. **Nutqning grammatik korinishini tekshirish metodikasi.**

Barcha sozlarda ot va fellar eng kop informative qiymatga ega. Aynan shu sozlar gapni simantik asosini xosil qiladi. Ularga muxim ma`no yuklatiladi. Busozlar nutq ontoginezida ormal va anomal rivojlanayotgan bollarda birinchi bolib paydo boladi.

Ularni oz vaqtida bilmaslik tola qonli nutq muomilasini shakilanishiga tosqinlik qiladi. Shuning uchun nutq organishi metodikasiga predmet va harakatlarni nomlash bo'yicha topshiriqlar kiritiladi. Nutqiy aloqani amalaga oshirish uchun fikrni bayon etish konikmasi mavjud bolishi kerak. Bu jarayon nutqni asosiy birligi xisoblanadi. Jumlar yordamida amalaga oshiriladi. Jumla tarkibiga kiruvchi sozlar guruxi mano birligini tashkil qiladi. Nutqni

rivojlanishda buzilishi bolalarda jumla tuzishdagi va jumlaning nutqiy aloqa qilish jarayonida qollashdagi qiyinchiliklarni aniq korinadi. Jumla tuzilishi avalgilariga qaraganda murakabdir chunki uni bajarish uchun nutq faoliyati yetarli darajada rivojlanmagan bolishi va bola nutq vositalaridan erkin foydalanishi keraak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami.– T., 2017 .– B.39.
2. 8.Ayupova M. Logopediya. –O'zbekiston Faylasuflari Milliy Jamiyati . Toshkent, 2007.
3. Ayupova M.Y. Logopediya: darslik/ M.Y. Ayupova; O 'zbekiston Respublikasi Oliy va o 'rta maxsus ta 'lim vazirligi. — T.: O 'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. —560 b.
4. Ayupova M. «Korreksion ishlar metodikasi. (ma'ruzalar matni)». T 2005
5. Apeeva L.A. «Metodicheskie rekomendatsii i pourochnye razrabotki pobucheniya, chteniya i razvitiya rechi detey doshkolnogo vozrasta». Toshkent, 2000.